



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛІКСІЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

№ 6 2025



**1-ДЕКАБРЬ ҚАРАҚАЛПАҚ ТИЛИНЕ
МӘМЛЕКЕТЛИК СТАТУС БЕРІЛГЕН КҮН**



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2025

6-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис

6-сан 2025
ноябрь-декабрь

*Қарақалпақстан Республикасы мектепке шекемги хәм мектеп билимлендириўи
министрлиги, Қары Ниязий атындағы Тәрбия педагогикасы миллий институты
Қарақалпақстан филиалы*

Редактор:
А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ
Сапардурды АБАЕВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ
Мавлюда АЧИЛОВА
Азизжан АБДАЗИМОВ
Шухрат АБДУЛЛАЕВ
Сурайё АрЗИЕВА
Шерзод АКРАМОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Злийха ОРАЗЫМБЕТОВА
Мансурбек ОНГАРОВ
Руфат ОЧИЛОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ
Марифжон АХМЕДОВ
Гулзабира БАБАШЕВА
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Гулбахар БЕКИМБЕТОВА
Комил ГУЛЯМОВ
Рахматилла ГАИПНАЗАРОВ

Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Дилдора ДАВРОНОВА
Бекмурза ДИЛАНОВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ
(Шимкент, Қазақстан)
Масуда ЗАЙНИТДИНОВА
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Айсулу ЖАНАБЕРГЕНОВА
Ринат ЖУМАМУРАТОВ
Махира ЖУМАНИЯЗОВА
Холбой ИБРАГИМОВ
Шохида ИСТАМОВА
Рустам ЙЎЛДОШЕВ
Вохид КАРАЕВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА
(Тараз, Қазақстан)
Сарсенбай КАЗАХБАЕВ
Мохира КУВВАТОВА
Комилжон КАРИМОВ
Джавдод ПЎЛАТОВ
Искендер ПИРНИЯЗОВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ
(Шимкент, Қазақстан)
Меруерт ПАЗЫЛОВА

Барлыкбай ПРЕНОВ
Пердебай НАЖИМОВ
Искендер НАЖИМОВ
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА
Хушбоқ НОРБЎТАЕВ
Ойниса МУСУРМОНОВА
Уролбой МИРСАНОВ
Сафо МАТЧОН
Шукурилло МАРДОНОВ
Абдулхамид МИРЗАЕВ
Шахло МИРЗАЕВА
Дармонжон МАХМУДОВА
Абдимурат ЕСЕМУРАТОВ
Даулетназар СЕЙИТКАСЫМОВ
Қалыбай ПРИМБЕТОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Норим РАХМАНОВ
Муқаддас РАХМАНОВА
Светлана СМЕРНОВА
(Москва, Россия)
Тажибай САПАРБАЕВ
Мухаббат САЛАЕВА
Гўзал СОДИҚОВА
Улбосын СЕЙТЖАНОВА
Айдын СУЛТАНОВА
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Қуанишбек ТҮРЕКЕЕВ
Ўқтамжон ТУМАНОВ
Шохида ТАЙЛАНОВА
Муҳиддин ТИРКАШОВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Озод УМАРОВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Тажикал КУДАЙБЕРГЕНОВА
Дилором ШАМСИЕВА
Ойбахор ШАМИЕВА

Ризамат ШОДИЕВ
Барно ШАМУРАТОВА
Зафар ЧОРИШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЮСУПОВ
Гулара ЮСУПОВА
Содиқ ЮЛДАШЕВ
Фархад РЎЗИЕВ
Аъзам ХОЛМУРАДОВ
Марат ХОДЖАНОВ
Мухлиса ХАФИЗОВА
Шохиста БЎРАНОВА
Мухаббат ХУДАЯРОВА
Қалбай СЕЙТМУРАТОВ
Азамат БЕКИМБЕТОВ
Гўзал НАЗИРОВА
Козим МАЛИКОВ
Ғиёсиддин ХУДОЙБЕРДИЕВ
Шакир УРИШОВ
Назифа АЧИЛОВА
Гулназ ТЛЕУМУРАТОВА
Мадияр СУЛТАНИЯЗОВ
Сансызбай САПАРНИЯЗОВ
Гулчехра АЙТБАЕВА
Байнияз МАМБЕТКАРИМОВ
Ботир БОЙМЕТОВ
Матлуба ДАВУРБАЕВА
Шахло ЮЛДАШЕВА
Мусаллам АБДУЖАББАРОВА
Айжамал МАТЖАНОВА
Жумабай АБАТОВ
Дониёр ЯДГАРОВ



МАЗМУНЫ

ТИЛ ҲАМ ЭДЕБИЯТ

Karamatdinova G.T. Qaraqalpaq tilin oqitiwda 5E modeli	8
Ixlasov I. Shet el ilimpazlariniń baslawish klaslarda lingvistikalıq kompetensiyaga tiykarlangan qatnaslardı qalıplestiriwde oy-pikirleri	18
Chariyev Ch.D. Qaraqalpaq hám túrkmen tillerindegi túbir morfemalardıń fonologiyalıq dúzilisi hám buwin qurılısı	25
Babaniyazova N.K. Evfemizm termininiń lingvistikada úyreniliw tariyxı	30
Hamdamova M.T. Tarjima nazariyasi predmeti va uning vazifalari	36
Рахмонова С. Шарк адабий жанрларини шаклланиши	41
Aytimbetova U. Chet tili mutaxassislik talabalariga tinglab tushunishni o'rgatishdagi asosiy qiyinchiliklar	45
Mamarizayeva F.Z. Tarjimada muallif uslubini saqlashning badiiy-estetik ahamiyati (S. Ahmadning "Jimjitlik" asari misolida)	51
Халмуратова М.Т. Роль русского языка в освоении медицинских предметов студентами-медиками	57
Бабаниязова Н.П. Инновационные методики обучения английскому языку: потенциал метода пяти олимпийских колец в современной образовательной парадигме	60
Abdurasulova N.A. Enhancing professional communication skills in tourism students through task-based english language learning	66
Karimova Z.O., Isaev F. Lexical Changes in the Modern Russian Language and Their Interpretation in the Educational Process	73

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Ovxunov I.A., Uzakov S.D. Virtual borliqqa ma'suliyatli munosabatni rivojlantirishning pedagogik muammo sifatida	79
Yaxshiyev N. Tizimlar nazariyasi asosida tizimli tahlilni amalga oshirishning ўзига хос аспекти	88
Nurmanova N. Integrativ modulli o'qitishning (IMO') nazariy va didaktik asoslari	96
Ismoilova D.M. Bo'lajak o'qituvchilarning tarbiyaviy ishlarga tayyorlash xususiyatlari	101
Muxiddinova D.Sh. Ertakterapiya vositasida metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	106
Qazoqova D.Q. Biologiyani vitagen texnologiyalar asosida o'qitish mexanizmlari	112
Quzmanova G.B. Umumta'lim maktablarida o'rganiladigan nostandart testlar va ularni o'ziga xos xususiyatlar	118
Эрназаров А.Э., Чинкулова Г. Таълим жараёнида интерфаол методларнинг самарадорлиги: таҳлил ва тажриба	122
Rustamova F.I. Dizayn asosidagi steam faoliyatlarini mutaxassislik fanlarda qo'llash va ularning o'qituvchilar malakasini ta'siri	131
Rustamova F.I. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasida masofaviy va aralash ta'lim modullarning roli	140
Ergashev M.U. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida metaverse texnologiyalarini joriy etish istiqbollari va muammolari	146
Movlonov M.K., Raxmonov B.A. Talabalarga aniq integral tushunchasini o'rgatishda innovatsion metodlardan foydalanish	154
Shernafasova H.R. Pedagogik nizo tushunchasining falsafiy, psixologik va pedagogik asoslari	160



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING TARBIYAVIY ISHLARGA TAYYORLASH XUSUSIYATLARI

Ismoilova D.M.

CHDPU katta o‘qituvchi

Tayanch so‘zlar: ta’lim, tarbiya, ong, shaxs, nutq, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, ma’rifiy, sotsiologiya.

Ключевые слова: образование, воспитание, сознание, личность, речь, социальный, экономический, духовный, просветительский, социология.

Key words: education, upbringing, consciousness, personality, speech, social, economic, spiritual, educational, sociology.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada tarbiyaviy ishlar asosida bolalarda milliy g‘ururni shakllantirib, milliy g‘oya tushunchalarini tarkib toptirish, shaxsning ma’naviyatini zamon talablariga javob beradigan tarzda shakllantirish har qanday pedagog o‘z faoliyatlarini o‘quvchilarda axloq va odob bilimlarini rivojlantirish muammolari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье раскрываются вопросы формирования у детей национальной гордости и понятий национальной идеи на основе воспитательной работы, а также формирования духовности личности в соответствии с требованиями времени. Кроме того, освещаются проблемы развития у учащихся нравственных и этических знаний в деятельности педагога.

SUMMARY:

The article discusses the problems of developing moral and ethical knowledge in students, which any educator should focus on, based on educational work, to form national pride in children, to form concepts of the national idea, and to form the spirituality of the individual in a way that meets the requirements of the time.

Bugungi kunda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda davlat va jamiyat tomonidan ko‘rsatiladigan yordam va madadni kuchaytirish, mazkur jarayonlar uchun mas‘ul bo‘lgan sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat, ijtimoiy muhofaza muassasalarida zamonaviy talablarga javob beradigan shart-sharoitlarni yaratish kabilar davlat siyosatining ustivori hisoblanadi. Albatta ularni amalga oshirishda o‘qituvchining tashkilotchiligi va ular bilan uzviy ravishda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishi muhim o‘rin tutadi.



O'qituvchilarining o'quvchi shaxsiga ta'sir etishi ularning dunyoqarashini kengaytiradi va iqtisodiy, huquqiy, axloqiy va ekologik ta'limga oid bilimlarni, madaniy saviyasini, ish tajribasi kabilarni rivojlantiradi. Unda milliy ong va ma'naviy zaminni barpo etadi. Ushbu jarayonda maktab o'qituvchilari va o'quvchilarning mehnat vazifasini aniq taqsimlashi, uni aniq bajarilishida, ularning qobiliyatini yaxshi anglashi, tarbiya samaradorligini oshiradi va ta'sirchanligi natijali bo'ladi. O'qituvchilari tarbiya ishlarini boshqarishda o'quvchilar o'rtasida axloqsizlik va subutsizlik, ijtimoiy hasad kabi salbiy illatlarni bartaraf etishlarida quyidagilarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir.

1. *Har bir ishda adolatli bo'lish.* O'quvchilarga doimo adolatli, to'g'ri, haqiqatparvar, o'tkir aql, sof mulohaza, toza ko'ngil, olijanob va mard bo'lish xususiyatlarini shakllantish muhim o'rin tutadi. Chunki, dunyoda adolatparvarlikdan ko'ra ko'rkamroq xulq va tabiat yo'qligini ularga tushuntiradi. Ularda adolatli bo'lish – so'zida turish, qat'iylik kabilarni kamol toptiradi. Chunki, adolatli aytilgan so'z aytuvchiga ham, eshituvchiga ham manfaat yetkazadi. To'g'ri so'zlab o'lmoq, yolg'on gapirib qutulmoqdan afzal. O'quvchilarni to'g'rilik yaxshilik sari yetaklaydi, yaxshilik esa adolatga yetkazadi. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan har bir ishni adolatli taqsimlangani uchun hurmat qiladilar.

2. *O'quvchilarga e'tiborli bo'lish.* O'qituvchi tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsiga qanchalik e'tibor bersa, kelajakda ular baxtli hayot kechiradilar. Jamiyatimiz farovon bo'ladi. Buning uchun ularni o'zbek xalqining urf-odatlarini bilan yaqindan tanishtirishlari lozim. Ayniqsa, xalq qo'shiqlarida, ertaklarda, rivoyatlarda, latifalarda, maqollarda aks etgan o'zbek xalqining bir-biriga yordam berish, g'amxo'rlik qilish haqidagi fikrlarini ularga tushuntirish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarga e'tiborli bo'lish bu ularni axloqli, odobli qilib tarbiyalashda doimo bitmas tuganmas xazina bo'lib xizmat qiladi.

Bunda fan o'qituvchilari va sinf rahbarlari o'quvchilarning faoliyati xaqida ko'proq bilishi, qiziqishi, muammolari, qiyin daqiqalarda ularga yordam berish, qo'llab-quvvatlash kabilarni amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir.

3. *O'quvchilar bilan muloqotda bo'lishda* har bir fan o'qituvchisi va sinf rahbarlari o'z o'quvchilarini sabrli bo'lishga o'rgatish bilan birga uni nutqining ravonligi, yoqimli bo'lishi, aniqligi va mantiqiyligiga ahamiyat berishi va avval eshitib keyin gapirishi, muloqotni aniq maqsadga qaratishi muhim hisoblanadi. Chunki, muloqot jarayonida ularda insoniylik, odamiylik, samimiylik, haqiqatparvarlik kabi xususiyatlar rivojlanadi.

Har bir muloqot o'quvchini fikrlashga, tajribani oshirishga, maqsad yo'lini ko'rsatishiga, oqil bo'lishga o'rgatadi. O'qituvchining kinoyali yoki kesatq gaplari o'quvchilarning dilini sindiradi, unda g'amginlik paydo qiladi.



Sinf rahbari “Muloqoting shunday bo‘lsinki, kutib olish bilan kuzatishdagi muvozanat buzilmasin!”, “Muloqotdagi yovvoyi so‘zlar odoblilarni hayiqtiradi” kabi naqlarga oid misollar keltirib, ularni muhokama qilishga o‘quvchilarni o‘rgatadilar.

4. *Sertabassum bo‘lish.* O‘qituvchi o‘zining qadam tashlashi, bosh harakati, chaqqonligi, yuz mimikasi, tez o‘zgarishi, aniqligi, tabassumi, xususiyatlari, ovozi, nutqi, rangi, rangining o‘zgarishi, sertabassum bilan munosabatda bo‘lishi, o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan suhbatlarda ochiq chehra bilan muloqotga kirishishi, ularning fikrini eshitishi muhim hisoblanadi. Hech qachon o‘quvchilarning og‘zini ochirmay, luqma tashlamay, balki samimiyat bilan hazil-mutoyiba qilib gaplashgan ma’qul. O‘quvchilar bilan hazillashib bo‘lmaydi, deb doim o‘zini jiddiy tutaverish ham yarashmaydi.

O‘quvchilar ko‘nglini ochib, g‘am-tashvishini sizga aytib maslahat so‘rasa, yordamingizni ayamang. O‘quvchilar og‘ir damlarida ko‘nglini ko‘targan va yordam bergan kishini unutmaydi. Undan bir umr minnatdor bo‘lib yuradi. Shuning uchun har bir o‘qituvchi o‘quvchilarning ko‘nglini ko‘tarishi, unga ishonishi, yaxshi fazilatlarini, o‘qishdagi yutuqlarini o‘rni kelganda rag‘batlantirib turishi muhim hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning ojiz tomonlaridan kulmasligi, kamchiliklarini yuziga solmasligi lozim. O‘qituvchining jiddiyligi o‘quvchilarni xavotirga soladi.

5. *Tanqid qilishda juda hushyor bo‘lish.* O‘qituvchilar o‘quvchilarning hatti-harakatidagi xatolarni kuzatishi, tegishli xulosalar chiqarishi muhim hisoblanadi. Tanqid qilishga shoshilmaslik kerak. O‘quvchining fikrini, ichki his-tuyg‘ularini va kamchiliklarini o‘rganishlari kerak. Chunki, xato qilmaydigan inson bo‘lmaydi. Doimo harakatda bo‘lgan kishi xatoga yo‘l qo‘yishi tabiiy. Hamma gap, bunday xatolarni takrorlamaslikdadir. Shu jihatdan ham o‘quvchining dilini og‘ritmaslik, tanqid qilishdan oldin unga o‘z kamchiligini aytish, muloyimlik bilan munosabatda bo‘lishi zarur. Buning uchun:

- o‘quvchilarni har qanday vaziyatda qarama-qarshiliklarni anglash va hal qilishga o‘rgatish;
- kundalik tajribada turli qarorlar, sag‘lom fikr mulohaza (muhokama)larning mahsuldorligiga erishish va ularning biryozlamaliligini bartaraf etish;
- o‘quvchilar o‘rtasidagi muammoli vaziyatni hal qilish yo‘llarini ko‘rsatish;
- berilgan topshiriq ustida ishlash imkoniyatlarini umumlashtirish kabilar ularda tafakkur va sinchkovlikni rivojlantiradi.

6. *O‘quvchilarni rag‘batlantirish.* Bunda har bir o‘qituvchi rag‘batlantirish metodidan foydalanib, o‘quvchining har bir ishiga e’tibor bilan munosabatda bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilar jamoasini maqtash, badiiy kitoblar, o‘quv



qurollari kabi esdalik sovgʻasini berish, maqtoʻv yorligʻi bilan taqdirlash, qoʻllab-quvvatlash, fotosuratini hurmat taxtasiga qoʻyish, jamoa nomidan minatdorchilik bildirish, safda birinchi oʻrinda turishini taʼminlash, musobaqalarda bayroqdor boʻlishga imkoniyat yaratish, nomini maktab gazetasi yoki radiosi orqali qayd etish kabilarni tashkil etadi va amalga oshiradi. Tarbiya jarayonida oʻquvchilarni ragʻbatlantirish ketma-ket boʻlmasligi, uning hatti-harakatlarini haddan oshirib yubormaslik, boshqa oʻquvchilarga taqqoslamaslik, kamsitmaslik, talabchanlikni boʻshashtirmaslik kabilarga eʼtibor qaratilishi muhim hisoblanadi. Shuni alohida taʼkidlash kerakki, oʻquvchi xususiyatlardan biri oʻzini boshqalar tomonidan biror qilgan ishi yoki hatti-harakati uchun maqtoʻv eshitish uni ragʻbatlantiradi. Bunday holatlarda oʻqituvchi oʻz oʻquvchilarida har bir ishga sadoqatlilik, fidoyilik kabi fazilatlarni shakllantiradi.

7. *Oʻquvchilarga buyruq ohangi yoqmaydi.* Ushbu jarayonda oʻqituvchilar oʻquvchilarga nisbatan maʼqullovchi xolatini amalga oshirishi, unga fikrini aniqroq bayon qilishga yordam berishi, uni himoya qilishi, unga ishonishi, kuchli va kuchsiz tomonlarini, xatolarini aniqlashi, shoshib xulosa chiqarmasligi kerak. Sinf rahbari va fan oʻqituvchilari oʻz diqqatini koʻproq oʻquvchining tashqi qiyofasi va nutqiga eʼtibor berib eshitishi odat tusiga aylanishi kerak. Oʻquvchining gapini tez-tez boʻlib qoʻymasdan buyruq berish oʻrniga savol berish usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, “Siz nima deb oʻylaysiz, shunday qilsa yaxshi boʻladimi?”, “Siz bu masalaga qanday munosabatda boʻlgan boʻlar edingiz?” kabilar.

8. *Oʻzingizni oʻquvchining oʻrniga qoʻyib koʻrish.* Oʻqituvchi bilan oʻquvchilarning oʻzaro munosabatlari nihoyatda samimiy boʻlishi lozim. Baʼzi oʻquvchilar qiyin vaziyatga tushgan paytida oʻz ota-onasiga ayta olmagan gaplarini oʻqituvchiga aytadi. Undan yordam soʻraydi. Buning uchun oʻqituvchi oʻquvchiga eʼtiborli boʻlish hamda koʻproq uni tinglay olishi muhim hisoblanadi.

Albatta bunda oʻqituvchi xushyor va xushmuomala suhbat qilishi, oʻquvchining kayfiyati yomon boʻlgan paytlarda ham uning ruhiy holatini boshqarishi, oʻz muomalasi bilan yaxshi taassurot qoldirishi uning tarbiyasida muhim oʻrin tutadi. Yaxshi oʻqituvchi ziyraklik bilan oʻquvchilarning tashqi qiyofasidagi arzimasi oʻzgarishlarni hisobga olgan holda muomala qiladi. Oʻzaro munosabatlarning samarali kechishi uchun muammo va topshiriqda oʻquvchi nuqtai nazar bilan qarashga harakat qilish ularda oʻqituvchiga nisbatan ishonch va hurmat yanada oshadi.

9. *Murabbiylik vazifasini bajarish.* Sinf rahbari oʻz oʻquvchilariga bilim, maʼlumotlarni egallashda yordam beradi. Bilish, mehnat qilish, axloqiy madaniyatni shakllantirish faoliyati bilan bogʻliq koʻnikma, malakalarni hosil



qiladi. O'quvchilarning yoshiga doir shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish bilan birga ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etadi. Tarbiya tufayli o'quvchidagi kamchiliklarni bartaraf etadi. Shaxs kamolotini rivojlantiradi. Tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotib, kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

10. *Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari jamoatchilik bilan hamkorligida* o'quvchilarda o'zligini anglashga uning hayotda o'z o'rnini topishi uchun sharoit yaratish bilan birga ularda dunyo haqidagi aniq tasavvurlarni hosil qilish uchun zamonaviy bilimlarni shakllantiradi. O'quvchilarning ishlash tizimini uyushqoqligi, faolligi, bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasi va ularning ijodiy qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi.

Tarbiya jarayonida o'qituvchining madaniyati va ma'naviyati, ularning shaxsiy xulq-atvori va obro'si, vatanparvarlik va burchni his etishi o'quvchilarda yaxlit holda ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan barcha nazariy-amaliy metodik ishlarni tashkil etadi. Boshqa ta'lim-tarbiya maskanlarining ish tajribalarini o'rganadi. Albatta bunda o'qituvchilar insonparvarlik tamoyiliga asoslanishi, shuningdek, tarbiya ishini tashkil qilish malakasiga ega bo'lishlari lozim.

Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari tarbiyaviy ishlarga barcha o'qituvchilar jamoasi, "Yoshlar ittifoqi", o'quvchilar jamoasi kabilar faoliyatini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tarbiya ensiklopediyasi, tuzuvchi M.N.Aminov. -T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
2. Ismoilova Z. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T.: Istiqol, 2003.
3. Hasanboev J., To'raqulov X., Alqarov I., Usmanov N. Pedagogika. T.: Fan va texnologiya, 2010
4. To'raqulov X., Alqarov I., Usmanov N. Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar. – T.: "Fan va texnologiya". 2008.
5. D.M.Ismoilova. Effectiveness Of Improving The Mechanisms Of Training Educational Work In Institutions Of Higher Education. Pedagogical cluster journal of pedagogical developments PCJPD: Volume 2 Issue 3, March 2024, online: ISSN 2956-896X
6. Ismoilova D.M. O'quvchilarni tarbiya ishi pedagogi kasbiga yo'naltirish mexanizmlari. Mug'allim ham yzliksiz bilimlendiriw. – Nukus, 2021. - № 4/1.- B. 43-46